

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Ped.28.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

JISMONIY TARBIYA VA SPORT ILMIY TADQIQOTLAR INSTITUTI

MAMBETNAZAROV ISLAMBEK MURATBAYEVICH

**AKADEMIK ESHKAK ESHUVCHILARNING TEXNIK
TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISHNING METODOLOGIK
ASOSLARI**

**13.00.04 – Jismoniy tarbiya, sport mashg‘ulotlari, sog‘lomlashtirish va adaptiv jismoniy
tarbiya nazariyasi va metodikasi**

**pedagogika fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasi
AVTOREFERATI**

Chirchiq – 2025

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора наук (DSc)

Contents of dissertation abstract of doctor of science (DSc)

Mambetnazarov Islambek Muratbayevich

Akademik eshkak eshuvchilarning texnik tayyorgarligini takomillashtirishning metodologik asoslari 3

Мамбетназаров Исламбек Муратбаевич

Методологические основы совершенствования технической подготовки академических гребцов33

Mambetnazarov Islambek Muratbaevich

The methodological foundations for improving the technical training of academic rowers.....67

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....72

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Ped.28.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

JISMONIY TARBIYA VA SPORT ILMIY TADQIQOTLAR INSTITUTI

MAMBETNAZAROV ISLAMBEK MURATBAYEVICH

**AKADEMIK ESHKAK ESHUVCHILARNING TEXNIK
TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISHNING METODOLOGIK
ASOSLARI**

**13.00.04 – Jismoniy tarbiya, sport mashg‘ulotlari, sog‘lomlashtirish va adaptiv jismoniy
tarbiya nazariyasi va metodikasi**

**pedagogika fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasi
AVTOREFERATI**

Chirchiq – 2025

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining B2025.2.DSc/Ped1199 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Jismoniy tarbiya va sport ilmiy tadqiqotlar institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.jtsu.uz) va “ZiyoNET” Axborot ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi: **Matkarimov Rashid Masharipovich**
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Rasmiy taqrizchilar: **Korobeynikov Georgiy Valerovich**
biologiya fanlari doktori, professor

Gaziyev Shukurjon Shuxratovich
pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

Muxammadiyev Komil Burxanovich
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Yetakchi tashkilot: **O‘zbekiston milliy universiteti**

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.Ped.28.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil “__” _____ soat ____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Sportchilar ko‘chasi, 19-uy. Tel.: (0-370) 717-17-79, 717-27-27, faks: (0-370) 717-17-76, Veb-sayt: www.jtsu.uz. e-mail: info@jtsu.uz. O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti “E bino” 3-qavat 309-auditoriya).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Metalurglar ko‘chasi, 15-uy. Tel: (0-370) 717-17-79,717-27-27, faks.: (0-370) 717-17-76.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “__” _____ kuni tarqatildi.
(2025-yil “__” _____ da _____ raqamli reestr bayonnomasi)

M.S.Olimov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash raisi, pedagogika fanlari
doktori (DSc), professor

M.A.Ibragimov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash ilmiy kotibi,
p.f.b.f.d. (PhD), professor

A.N.Shopulatov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy
seminar raisi, p.f.d. (DSc), professor

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi))

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda suv sporti turlarini ommalashtirish va iqtidorli yoshlarni akademik eshkak eshish bilan shug‘ullanish uchun saralash va maqsadli tayyorlash tizimini takomillashtirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Akademik eshkak eshishni aholi o‘rtasida ommaviy sport turlaridan biriga aylantirish hamda uni professional sportchilarni tayyorlash, yuqori malakali sportchilarni qamrab olish va yoshlarni barkamol etib tarbiyalashga xizmat qiladigan sport turi sifatida targ‘ib qilish masalalari muhim ahamiyat kasb etmoqda. Akademik eshkak eshish bo‘yicha xalqaro talablarga muvofiq zamonaviy suv sporti inshootlarini qurish, rekonstruksiya qilish va moddiy-texnika bazasini takomillashtirish muhim muammo sifatida ko‘rib chiqilmoqda. Shu bilan birga, eshkak eshuvchi sportchilarning mashg‘ulot va musobaqa jarayonlarida texnik harakatlarini bajarishdagi xatolarni aniqlash va ularni bartaraf etish usullarini ishlab chiqish dolzarb muammo sifatida qaraladi.

Rivojlangan xorijiy mamlakatlarda akademik eshkak eshish sport turi bilan shug‘ullanish imkoniyatlarini kengaytirish uchun qo‘shimcha mashg‘ulotlarni olib borish, o‘quv-trenirovka mashg‘ulotlarida zamonaviy ilmiy-yutuqlar va innovatsion texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Soha mutaxassilari tomonidan akademik eshkak eshuvchilarni funksional holatini yaxshilash, aerob-anaerob shiddat zonalarida mashg‘ulot olib borish uslubiyatini ishlab chiqish, ushbu sport turi bilan shug‘ullanadigan sportchilarni tayyorlashning zamonaviy vosita va usullarini izlash bilan bir qatorda, akademik qayiqlarda eshkakni to‘g‘ri eshish texnikasi samaradorligini oshirish bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Xalqaro eshkak eshish standartlariga muvofiq zamonaviy suv sporti inshootlarining moddiy-texnik infratuzilmasini qurish, rekonstruksiya qilish va takomillashtirish muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, trenirovkalar va musobaqalar davomida eshkak eshuvchilarning texnik harakatlarni bajarishdagi fazalar bo‘yicha xatolarini aniqlash va ularni tuzatish usullarini ishlab chiqish dolzarb masala hisoblanadi.

Respublikamizda akademik eshkak eshish sporti sohasida kuchli raqobat va sport natijalarining doimiy o‘sib borishi, trenirovka jarayonini hamda musobaqa faoliyatini boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha bir qator tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-noyabrdagi PQ-382-son “Suv sporti turlarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qaroriga binoan O‘zbekiston davlat jiamoniy tarbiya va sport universiteti “Suv sporti, eshkak eshish turlari nazariyasi va uslubiyati” kafedrasini negzida suv sporti turlari yo‘nalishlarini o‘z ichiga olgan “Eshkak eshish sport turlari nazariyasi va uslubiyati” kafedrasini tashkil etish”¹ amalga oshirildi. Shu bilan birga, xalqaro musobaqalarda akademik eshuvchilar erishayotgan rekord natijalarni tez-tez yangilanib turishi, navbatdagi musobaqalarga tayyorgarlik ko‘rishda mashg‘ulotlarni

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-noyabrdagi PQ-382-son “Suv sporti turlarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori.

tizimli rejalashtirish talabini qo‘ymoqda. Akademik eshkak eshuvchilarni texnik tayyorgarligini takomillashtirishda musobaqa faoliyatidagi eshish uzunligi va sonini ko‘paytirish yuzasidan ilmiy asoslangan mashg‘ulot metodikasini ishlab chiqish, hozirgi kunda, dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Mazkur dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2020-yil 24-yanvardagi PF-5924-son Farmoni, “Sport ta’limi tizimini tubdan takomillashtirish orqali Olimpiya va Paralimpiya sport turlari bo‘yicha sportchilar zaxirasini shakllantirish sifatini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2021 yil 5-noyabrdagi PQ-5279-son, “Suv sporti turlarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2024-yil 4-noyabrdagi PQ-382-son Qarorlari hamda sohaga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Tadqiqot respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning: I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovasion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” bilan bog‘liq ustuvor yo‘nalishlari doirasida amalga oshirilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi.² Akademik eshkak eshuvchilarning texnik tayyorgarligini takomillashtirish muammolari bo‘yicha ilmiy izlanishlar dunyoning yetakchi ilmiy-tadqiqot markazlari va oliy o‘quv yurtlarida, xususan: Rossiya davlat jismoniy tarbiya, sport va turizm universiteti [Rossiya Federatsiyasi, Moskva sh.], Avstraliya quyosh soqili universiteti [Avstraliya Respublikasi, Sidney sh.], Yangi Zelandiya sport va dam olish instituti [Yangi Zelandiya Respublikasi, Okland sh.], yetakchi olimlari tomonidan tadqiqot va tajribalar olib borilmoqda.

Chet ellarda nashr qilingan ilmiy va ilmiy-uslubiy manbaalarning tahliliga ko‘ra, akademik eshkak eshuvchilarning texnik tayyorgarligini takomillashtirishga oid dasturlar ishlab chiqilgan [Rossiya davlat jismoniy tarbiya, sport va turizm universiteti, Rossiya Federatsiyasi], Kompyuterlashtirilgan trenajyor majmuasidan foydalangan holda boshlovchi akademik eshkakchilarning texnik elementlarini takomillashtirishga oid maxsus dastur ta’minoti yaratilgan. [Avstraliya quyosh soqili universiteti, Avstraliya Respublikasi], Ekspert murabbiylardan texnik ko‘rsatkichlarni statistik baholash tahlil qilish texnologiyasi ishlab chiqilgan. [Yangi Zelandiya sport va dam olish instituti, Yangi Zelandiya Respublikasi], eshkak eshish texnikasini yaxshilash uchun maxsus trenajyorlar ishlab chiqilgan.

² Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi quyidagi saytlar bazasida amalga oshirilgan: [//www.rowperfet.co.uk/](http://www.rowperfet.co.uk/), [//http://www.worldrowing.com/](http://www.worldrowing.com/), <http://www.rowingaustralia.com.au/>, <http://www.rowingcanada.org/>, <http://www.usrowing.org/>, <http://www.avironfrance.fr>, <http://www.britishrowing.org>, <http://www.rudern.de>, <http://www.ukrrowing.com>

Bugungi kunda, akademik eshkak eshuvchilarning texnik harakatlarini takomillashtirish muammolari bo'yicha xalqaro ilmiy-tadqiqot institutlari, oliy o'quv yurtlari, shuningdek yetakchi ilmiy-sport markazlarida akademik yeshkak yeshishda texnik harakatlarni mashg'ulot va musobaqa faoliyatida tezkor tahlil qilish metodikasi bo'yicha zaruriy manbalarni takomillashtirishga qaratilgan ilmiy ishlar olib borishmoqda.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Mamalaktimiz olimlari V.M.Korbut, R.G.Israilova, X.Yu.Matnazarov, B.F.Ikramov, G.M.Zoitov, B.Ishimov, Z.Azimov, Sh.Xolmirzayevlar³ tomonidan suv sport turlarida sportchilarni tayyorlash va akademik eshkak eshish sportida oqilona sport tayyorgarligining samarali yo'nalishlarini tanlash, ko'p yillik tayyorgarlik bosqichining o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiruvchi vazifalarni amalga oshirish, texnik elementlarni to'g'ri bajarish va eshish fazalaridagi xatolarni bartaraf etishda zamonaviy uslublarni yaratish bo'yicha ilmiy-amaliy tadqiqotlar olib borishgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari yetakchi mutaxassislari tomonidan mavzuga bog'liq bo'lgan ko'plab tadqiqotlar o'tgan asrning oxirida amalga oshirilgan, akademik yeshkak yeshish sportida hozirgi kundagi sport natijalarini shiddat bilan o'sishi, bu sohada yangi zamonaviy yondashuv hamda qo'shimcha ilmiy, ilmiy-uslubiy ishlanmalarda bayon qilingan (V.V.Kleshnev, N.N.Ivanchikova, V.V.Orlova, L.A.Yegorenko, V.B.Issurin, T.S.Timakova)⁴.

Xorijiy olimlar A.H.McGregor, F.L.O.Sullivan, V.R.Nolte, M.B.Roberts; D.C.Churbuck⁵ kabilar tomonidan sportchilarning individual xususiyatlarini, tayyorgarlik tizimida zamonaviy vosita va uslublarini qo'llagan holda sportchilar tayyorgarligini tashkil qilish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar o'tkazishgan, ular orqali natijadorlikni oshirishda sport o'yinlari, siklik sport turlari, murakkab koordinasion sport turlarida texnik tayyorgarlik masalasiga bag'ishlangan xususan, akademik

³ Korbut V.M, Israilova R.G. Sport pedagogik maxoratini oshirish. O'quv qo'llanma 1-bosqich T.: 2017. - 148 b., Israilova R.G. Академическая гребля. Учебное пособие для направления образования 5610500- Спортивная деятельность(по видам деятельности) Т.: 2020. – 154 с., Matnazarov X.Yu. Eshkak eshish nazariyasi va uslubiyati. Darslik T.: 2020. - 241 b., Ikramov B.F. Boshlang'ich tayyorgarlik bosqichida shug'ullanuvchi eshkakchi baydarkachilarning muvozanat turg'unligini innovatsion vosita va usullar yordamida rivojlantirish // O'z.Res. p.f.b.f.d. (PhD): diss ... Chirchiq. 2021. – 110 b., Ishimov B.A 13-14 yoshli brass usulida suzuvchilarning kuch tayyorgarligini rivojlantirish samaradorligi // O'z.Res. p.f.b.f.d. (PhD): diss ... Chirchiq. 2022. – 113 b., Azimov Z.N boshlang'ich tayyorgarlik bosqichida kanoeda eshkak eshuvchilarning koordinatsion qobilyatini quruqlikdagi maxsus mashqlar yordamida rivojlantirish // O'z.Res. p.f.b.f.d. (PhD): diss ... Chirchiq. 2025. – 124 b., Xolmirzayev Sh.I. Yuqori malakali akademik eshkak eshuvchilarning mashg'ulot vosita va yuklamalari hajmini optimallashtirish // O'z.Res. p.f.b.f.d. (PhD): diss ... Chirchiq. 2025. – 146 b.

⁴Клешнев В. Погода и скорость лодки. -Новости биомеханики гребли, 2009, вып. 9, № 105: - Р. 85-89. Иванчикова Н.Н. Комплексный подход в диагностике функционального состояния спортсменов высокой квалификации. / Н.Н. Иванчикова, А.И. Нехвядович, А.Н. Будко. - Электрон. дан. // Наука и спорт: современные тенденции. - 2014. - № 4. - С. 79-83. Орлова, В. В. Методологические аспекты современной системы подготовки квалифицированных спортсменов в академической гребле / В. В. Орлова // Социология образования. – М. : Издательство Современного гуманитарного университета, 2016. – №8. – С. 108-113.

⁵ McGregor AH (2003) Моделирование многомерных биомеханических измерений позвоночника во время гребных упражнений. Клиническая биомеханика 18, - P.488-493 ., Nolte, V. Rowing Faster / Volker Nolte. – Human Kinetics Publishers ; 1st edition, 2004. – 294 p., Roberts, M.B. Crew: The Rower's Handbook / M. B. Roberts (Author), Ronald C. Modra (Photographer). – New York : Sterling, 2007. - 182 p. Churbuck, D. C. The book of rowing / David C. Churbuck. – Overlook TP ; 4 Updated edition, 2008. – 320 p.

yeshkak yeshuvchilarning yuqori darajadagi maxsus jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlari, texnik tayyorgarligini rivojlantirish va sportchilarning funksional imkoniyatlarini oshirish orqali sport natijalarini yaxshilashga qaratilgan bir qator ilmiy uslubiy ishlarni amalga oshirishgan.

Shu bilan birga, amaliyot, akademik eshkak eshishda qayiq a'zolarini o'zaro harakatini, ularni yeshish siklini bajarishdagi texnik jihatdan muvofiqligini, antropometrik va funksional tayyorgarlik ko'rsatkichlari hamda sportchining eshish texnikasini bajarish vaqtidagi psixologik omillarini tasirini, sportchilarni qayiqdagi joylashuv majburiyatlarini hisobga olmagan holda, mavjud an'anaviy vosita va usullardan foydalanib tashkil etilishi soha mutaxassislari oldiga bu yo'nalishda chuqur ilmiy izlanishlar olib borish talabini qo'yimoqda.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim va ilmiy tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishi Jismoniy tarbiya va sport ilmiy tadqiqotlar institutining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasidagi III.3/4. "Biomexanik tahlil asosida yuqori malakali sportchilarning texnik-taktik mahoratini oshirish" mavzusidagi loyixa doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi akademik eshkak eshuvchilarning texnik tayyorgarligini takomillashtirishning metodologik asoslarini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

akademik eshkak eshuvchilar yo'l qo'yadigan texnik xatolarni tuzatishga yo'naltirilgan mashqlar majmuasini ishlab chiqish;

akademik eshkak eshishda ixtisoslashgan sportchilarning jismoniy rivojlanishi va malakaviy tavsiflariga qarab har bir yosh toifasi uchun qayiq sozlashning individual parametrlarini ishlab chiqish;

akademik eshkak eshishda ixtisoslashgan sportchilarning texnik xatolarini aniqlash maqsadida eshishning asosiy fazalarini biomexanik tahlili parametrlarini aniqlash;

akademik eshkak eshishda ixtisoslashgan sportchilarning katta hajmli musobaqa faoliyatida Consept 2 ergometridan foydalanish bilan quruqlikda bajariladigan haftalik mikrosikllarni tashkil qilishni takomillashtirish;

akademik eshkak eshishda ixtisoslashgan sportchilarning texnik yelementlarning bajarilish ketma-ketligini birlashtirish uchun eshish harakatlari tezligini oshirishga yo'naltirilgan psixologik holatini aniqlash va baholash;

eshish harakatlarini bajarish paytida dinamik va statik kuchlanishlarni bajarishda ishtirok etadigan lokal mushaklar ishini samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan trenirovka metodikasini takomillashtirish.

Tadqiqotning obyekti yosh akademik eshkak eshuvchilar bilan olib boriladigan o'quv-trenirovka jarayoni.

Tadqiqotning predmetini yosh akademik eshkak eshuvchilarda eshish texnikasidagi xatolarni baratarf etishga qaratilgan vosita va usullari tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotlarni amalga oshirishda ilmiy-uslubiy adabiyotlarni tahlil qilish va umumlashtirish, pedagogik kuzatuv, yekspert baholash, psixologik testlar,

eshkakka beriladigan kuchlanishning tenzometrik tahlili (Concept 2-using the force), pedagogik tajriba, matematik-statistika usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

akademik eshkak eshuvchilarning texnik tayyorgarlikni takomillashtirishda ko'p yillik tayyorgarlik bosqichlarida yuzaga keladigan eshkak eshishdagi texnik elementlarni salbiy faktorlarini o'z vaqtida aniqlash va ularni korreksiya qilishga qaratilgan mashqlar majmuasini orqali eshish harakatlarini reflektor darajada avtomatlashtirishga yetkazish hisobiga eshish texnik mahorati takomillashtirilgan;

akademik eshkak eshuvchilarning mashg'ulot yuklamalarini optimal rejalashtirish jarayonida jismoniy tayyorgarlik darajasi, malaka va individual xususiyatlarini inobatga olgan holda yosh toifasiga, eshish jarayonida suvni ilish, eshish uzunligi, shiddati, kuchi hamda qayiq sozlash parametrlarini modellashtirish hisobiga texnik tayyorgarligini oshirish uslubiyati takomillashtirilgan;

akademik eshkak eshish fazalaridagi xatolarni aniqlash uchun asosiy fazalardagi biomexanik tahlil qilish, mikrofazalar xarak teristikasida mushak kuchi, harakat tezligi va burchaklarni o'lchash, eshkakni suvga tushirish, to'g'ri burchak va harakatning silliqligi inobatga olib o'tish fazasida kuch muvozanatini nazorat qilish, oxirgi fazada yengil eshish kabi harakatlarni amalga oshirish hisobiga barqaror jismoniy holatni namoyon qilishga erishilgan;

akademik eshkak eshuvchilarning funksional ko'rsatkichlarini oshirish maqsadida musobaqa foaliyatida Concept 2 ergometrida bir soatlik eshkak eshish texnik harakatlarini to'g'ri, takroriy bajarish qobiliyatini oshirishga qaratilgan harakatlarning sinxronligi hamda muvofiqligini ta'minlash hisobiga eshishda maksimal energiya sarfini taqsimlash imkoniyatlari kengaytirilgan;

malakali eshkak eshuvchilarning texnik elementlarni bajarish ketma-ketligini takomillashtirish uchun harakatlar tezligini oshirishga qaratilgan psixologik va vizual mashqlarni yuqori shiddatga olib chiqishda bajariladigan elementlarni muvoffiqlikda qo'llash orqali tog'ri eshishni avtomatlashtirish, texnik xatolarni minimal darajaga tushirish hisobiga musobaqa foaliyatida yuzaga keladigan turli murakkab-texnik vaziyatlarda harakatlarni to'xtovsiz bajarish imkoniyatlari oshirilgan;

eshish jarayonida dinamik va statik harakatlarni bajarishda zarur bo'lgan lokal mushaklarni ishlash samaradorligini oshirish uchun ishlab chiqilgan maxsus mashqlar kompleksi yordamida eshish vaqtida mushaklarni uzoq vaqt shiddatli harakatini yaxshilash hisobiga akademik eshkak eshuvchilarning startdagi harakatlarni yuqori sur'atda bajarish samaradorligi oshirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

ko'p yillik tayyorgarlik bosqichida texnik tayyorgarlikni takomillashtirishda yuzaga keladigan muammolar va texnik elementlarni noto'g'ri bajarishda uchraydigan salbiy faktorlarni o'z vaqtida aniqlash va ularni korreksiya qilishga qaratilgan mashqlar majmuasini ishlab chiqish natijasida eshish harakatlarni reflektor

darajada avtomatlashtirilishga yetkazish orqali texnik elementlarni bajarish mahorati sezilarli darajada yaxshilangan;

akademik eshkak eshuvchilarning jismoniy xususiyatiga qarab har bir yosh toifasiga individual qayiq sozlash parametrlarini ishlab chiqish orqali eshishning suvni ilish, eshish uzunligi, eshish shiddati, eshish kuchi, faktorlarini samaradorligini oshirish natijasida texnik tayyorgarlikni oshirish metodikasi takomillashtirilgan;

akademik eshkak eshuvchilarning katta hajimli musobaqa foaliyatida texnik harakatlarni to'g'ri, samarali va takroriy bajarish qobiliyatini, harakatlarning sinxronligi va muvofiqligini ta'minlash orqali har bir eshishda maksimal energiya samaradorligini ta'minlash natijasida sportchilarning texnik mahorati oshirilgan;

akademik eshkak eshishda eshishning uchta asosiy fazalarini biomexanik tahlili qilish orqali mikrofazalar xarakteristikasini mushaklar kuchi, harakat tezligi va burchaklarini o'lchash natijasida suvni ilish fazasida eshkakni suvga tushirishda to'g'ri burchak va harakatning silliqligi, olib o'tish fazasida mushaklarning kuch muvozanatini nazorat qilish samarali energiya ishlab chiqarish, eshish oxiri fazasida eshishni yumshoq va charchoqsiz yakunlash texnik harakatlarining samaradorligi oshirilgan;

eshish harakatlarini amalga oshiruvchi mushaklarning dinamik va statik harakatlarini bajarishda zarur bo'lgan lokal mushaklarni ishlash samaradorligini oshirishga qaratilgan maxsus mashqlar majmuasini ishlab chiqish orqali eshish vaqtida mushaklarning kuch, chidamlilik hamda moslashuvchanlik qobilyati yaxshilanganligi natijasida akademik eshkak eshuvchilarning texnik va jismoniy tayyorgarligi takomillashtirilgan;

texnik elementlarning bajarilish ketma-ketligini birlashtirish va harakatlar tezligini oshirishga qaratilgan vizualizatsiya va psixologik mashqlarni uyg'unlashtirish orqali tog'ri eshishni avtomatlashtirish va texnik xatolarni minimal darajaga tushirish natijasida musobaqa foaliyatida diqqatni jamlash, stressni boshqarish va texnik xatolarni kamaytirishi ongli boshqaruv texnikasi takomillashtirilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ishda qo'llanilgan nazariy yondashuv va usullar, olib borilgan tadqiqotlarning uslubiy jihatdan to'g'riligi, nazariy ma'lumotlarning olingan natijalar bilan mos kelishi, olib borilgan tadqiqotlarning uslubiy jihatdan to'g'riligi, nazariy ma'lumotlarning olingan natijalar bilan mos kelishi, olib borilgan tadqiqotlarning uslubiy jihatdan to'g'riligi, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, ularning nazariy va amaliy jihatdan to'g'riligi, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi, eksperimental faoliyatning zarur davomiyligi, tadqiqotning miqdoriy va sifat materiallarini tahlil qilish hamda umumlashtirish, shuningdek, tadqiqot natijalarini matematik-statistik usullar yordamida qayta ishlash joriy etish dalolatnomalarini taqdim etish orqali asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati akademik eshkak eshishda texnik tayyorgarligini takomillashtirish

modelini ishlab chiqish, texnik xatolarni aniqlashda zamonaviy usullardan foydalanish, eshkak eshishdagi mikrofazalarni tahlil qilish, sportchilarda psixologik testlar o'tkazish orqali visual ko'rish qobiliyatini baholash, antropometrik ko'rsatkichlarni hisobga olgan holda qayiq parametrlari bo'yicha me'yorlarini ishlab chiqish "Eshkak eshish nazariyasi va uslubiyati" fanini boyitish va kengaytirish bilan belgilanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundan iboratki, o'tkazilgan pedagogik tajribalarda olingan natijalar asosida yosh akademik eshkak eshuvchilarda texnik tayyorgarligini yaxshilash va texnik xatolarning oldini olish, sportchi tomonidan eshkakka beriladigan kuchlanishni "Concept 2" ergometirning funksiyasidan foydalangan holda tenzogrammaning eshish fazalaridagi vaqt ko'rsatkichlari, kuchning ko'tarilish vaqti, uni ushlab turish va pasayish vaqti aniqlanib, eshkak eshish fazalari orqali texnik xatolarni aniqlash hamda ularni kooreksiya qilishga qaratilgan mashqlar majmuasini ishlab chiqish, past shiddatli va yuqori hajmli mashg'ulotlarda uchraydigan texnik buzilishlarni bartaraf etish metodikasini qo'llash bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy etilishi. Akademik eshkak eshuvchilarning texnik tayyorgarligini takomillashtirish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari asosida:

akademik eshkak eshuvchilarning texnik tayyorgarlikni takomillashtirishda ko'p yillik tayyorgarlik bosqichlarida yuzaga keladigan eshkak eshishdagi texnik elementlarni salbiy faktorlarini o'z vaqtida aniqlash va ularni korreksiya qilishga qaratilgan mashqlar majmuasidan foydalanish bo'yicha taklif va tavsiyalar O'zbekiston yoshlar terma terma jamoasi a'zolarining mashg'ulot jarayoniga tadbiiq etilgan (Qoraqalpog'iston Respublikasi Sport vazirligining 2025-yil 3-apreldagi 01-19/1810-son ma'lumotnomasi). Natijada, akademik eshkak eshuvchilarning texnik tayyorgarligi o'rtacha 14,7% ga yaxshilanishga erishilgan;

akademik eshkak eshuvchilarning mashg'ulot yuklamalarini optimal rejalashtirish jarayonida, ularning jismoniy tayyorgarligi darajasi, malakasi va individual xususiyatlarini inobatga olgan holda, yosh toifasiga, eshish jarayonida suvni ilish, eshish uzunligi, shiddati, kuchi hamda qayiq sozlash parametrlarini modellashtirish hisobiga texnik tayyorgarligini oshirish uslubiyatini takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar Andijon Olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyotlash markazining akademik eshkak eshuvchilarining mashg'ulot jarayoniga tadbiiq yetilgan (Qoraqalpog'iston Respublikasi Sport vazirligining 2025-yil 3-apreldagi 01-19/1810-son ma'lumotnomasi). Natijada, yosh akademik eshkak eshuvchilarni 1000 m masofani bosib o'tish vaqti 13,36%ga yaxshilangan va 3:37,43 ni tashkil etgan ($P < 0,01$);

akademik eshkak eshish fazalaridagi xatolarni aniqlash uchun asosiy fazalarini biomexanik tahlili, mikrofazalarni tavsiflashda mushak kuchini, harakat tezligi va burchaklarni o'lchash, eshkakni suvga tushirish, to'g'ri burchak ostida suvga tushirish sifatini va harakat silliqligini inobatga orqali o'tish fazasida kuch muvozanatini nazorat qilish, oxirgi fazada yengil eshish harakatlarini amalga oshirish

hisobiga sportchilarni barqaror jismoniy holatda bo'lishiga yerishish bo'yicha taklif va tavsiyalar Samarqand shahri Sportning eshkak eshish turlari bo'yicha ixtisoslashtirilgan Olimpiya zahiralari Respublika bolalar-o'smirlar sport maktabi akademik eshkak eshuvchilarining o'quv-mashg'ulot jarayoniga joriy qilingan (Qoraqalpog'iston Respublikasi Sport vazirligining 2025-yil 3-apreldagi 01-19/1810-son ma'lumotnomasi). Natijada, akademik eshkak eshishda maksimal aylanish 32-37 daqiqa oralig'ida 32,0% ga yaxshilangan;

akademik eshkak eshishda ixtisoslashgan sportchilarni musobaqa faoliyatida eshish harakatlari sinxronligi hamda muvofiqligini ta'minlash maqsadida Concept 2 ergometrida bir soat davomida eshkak eshish texnik harakatlarini to'g'ri va ko'p marta bajarishni qobiliyatini oshirishni ta'minlash hisobiga eshish vaqtida maksimal energiya sarfini taqsimlash imkoniyatlarini kengaytirish bo'yicha taklif va tavsiyalar Nukus Olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazi yosh akademik eshkak eshuvchilarining o'quv-mashg'ulot jarayoniga joriy qilingan (Qoraqalpog'iston Respublikasi Sport vazirligining 2025-yil 3-apreldagi 01-19/1810-son ma'lumotnomasi). Natijada, eshkak eshish soni tadqiqot boshida 21 ta bo'lsa tadqiqot oxirida 25 taga yaxshilangan;

malakali eshkak eshuvchilar tomonidan texnik elementlarni bajarish ketma-ketligi to'g'ri eshkak eshishni avtomatlashtirish imkoniyati, harakat tezligini oshirishga qaratilgan vizual mashqlar paytida bajariladigan elementlarning muvofiqlashtirilgan qo'llanilishi, texnik xatolarni minimal darajaga tushirish va musobaqa faoliyatida yuzaga keladigan turli murakkab texnik vaziyatlarda harakatlarni uzluksiz bajarish hisobiga takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar Toshkent shahridagi Suv sport turlari bo'yicha Respublika oliy sport mahorati maktabi yosh akademik eshkak eshuvchilarining mashg'ulot jarayoniga joriy qilingan (Qoraqalpog'iston Respublikasi Sport vazirligining 2025-yil 3-apreldagi 01-19/1810-son ma'lumotnomasi). Natijada, akademik eshkak eshuvchilarning psixologik tayyorgarligi yoki texnik elementlarni bajarish ketma-ketligi umumiy hisobda 13,9% ga yaxshilangan;

akademik eshkak eshuvchilar tomonidan startda yuqori sur'at bilan bajariladigan harakatlarning samaradorligi, mushaklarning jadal harakatchanligini eshkak eshishdagi dinamik va statik harakatlarni uzoq vaqt davomida bajarishi jarayonida ta'minlashga yo'naltirilgan maxsus mashqlar majmuasi yordamida oshirish bo'yicha taklif va tavsiyalar Nukus shahri Respublika suv sporti turlariga ixtisoslashtirilgan sport maktabi akademik eshkak eshuvchilarining mashg'ulot jarayoniga joriy qilingan (Qoraqalpog'iston Respublikasi Sport vazirligining 2025-yil 3-apreldagi 01-19/1810-son ma'lumotnomasi). Natijada, soat boshida bel-chanoq nisbati eshish boshida bukish $3,4 \pm 1,7$ va yakunlashda $0,8 \pm 0,5$ ni tashkil etdi. 14-19 daqiqalarda, ya'ni B vaqt nuqtasida, o'sish kuzatilib, bukishda $3,8 \pm 2,0$ gacha yaxshilangan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro, 4 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarda aprobatsiyadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 24 ta ilmiy-uslubiy ish, shu jumladan, 1 ta darslik, 1 monografiya, O'zbekiston Respublikasi oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 13 ta maqola, jumladan, 11 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, besh bobdan iborat bo'lib, 220 sahifali matn, 40 ta rasm, 42 ta jadval, xulosa, amaliy tavsiyalar, adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan tashkil topgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida mavzusining dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti, usullari, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, tadqiqotdan olingan natijalarning ishonchliligi, tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati, joriy etilishi, aprotatsiyasi va e'lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi haqida ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning **“Akademik eshkak eshuvchilarni texnik tayyorgarligini tahlili yuzasidan adabiyotlar sharhi”** deb nomlangan birinchi bobida akademik eshkak eshuvchilarning texnik tayyorgarligining tavsifi, eshkakchilarning texnik tayyorgarligiga hozirgi zamon yondashuvlari, eshkak eshishdagi qayiq tezligiga suv harorati, shamol yo'nalishi va tezligining ta'siri, eshkak eshishning jamoaviy texnikasi va muvozanat turg'unligi, bo'yicha ma'lumotlar berilgan.

Ba'zi mualliflarning fikriga ko'ra, eshkak eshishda eshkakni qanday ushlashni, asosiy va boshlang'ich pozitsiyani egallashni va suzishni bajarishni o'rganish quruqlikdan boshlanadi. Yangi boshlanuvchilarga ikki qanotli eshkak eshish va eshkak eshish texnikasini tanlash qoidalari o'rgatiladi. Bu jarayon davomida shug'ullanuvchi tik turgan holda suzishni taqlid qiladi va barcha e'tibor qo'l harakatiga, ayniqsa itaruvchi qo'lni maksimal oldinga siljishda to'xtatishga qaratilishi kerak. Eshish harakatlari dastlabki holatda to'xtash bilan bajariladi, bu yuzaga kelgan xatolarni to'g'irlashga imkon beradi (B.Samsonov, R.Nolte, R.Davidov).

Eshkak eshishda qayiq ekipaji a'zolarining o'zaro ta'siri, ularning eshkak eshish sikli davomida texnik muvofiqlashtirilishi, antropometrik va funktsional tayyorgarlik ko'rsatkichlari hamda eshkak eshish texnikasiga ta'sir qiluvchi psixologik omillar, sportchilarning qayiqdagi majburiyatlarini hisobga olmasdan, mavjud an'anaviy vositalar va usullardan foydalangan holda, kutilgan natijalarni bermaydi. Bu, ushbu sohada tadqiqotlarning yetarli emasligini, shuningdek, eshkak eshish bilan shug'ullanadigan sportchilarning texnik tayyorgarligini oshirish usullarini ishlab chiqish zaruratini tasdiqlaydi.

Dissertatsiyaning **“Akademik eshkak eshish texnikasini xatolarini aniqlash bo'yicha hamda ularni kooreksiyalash metodikasini ishlab chiqish”** deb

nomlangan ikkinchi bobida akademik eshkak eshishda eshish elementlarini o'rgatish uslubiyati, akademik eshuvchilarni eshkak eshish vaqtida texnik xatolarini aniqlash va ularni korreksiyalash metodikasi, akademik eshkak eshish texnikasiga o'rgatish bosqichlari bo'yicha ma'lumotlar yoritilgan.

Akademik eshkak eshish sport turi bilan shug'ullanuvchi sportchilarning eshish vaqtida eshkakni olib o'tish va o'tkazishda eshkak yuzasining gorizontal holatiga hamda olib o'tishda tirsak harakatlarini noto'g'ri bajarishda texnik xatolar kuzatiladi. Qo'llar to'g'irlanishini o'zgartirish eshkak harakati tezligini o'zgartirishi mumkin. Akademik eshkak eshishda ko'p yillik bosqichida eshish vaqtidagi texnik xatolarning o'z vaqtida to'g'irlanmasligi, kelajakda yangi texnik xatolarni kelib chiqishiga zamin yaratadi hamda eshish va natija samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Akademik eshkak eshish texnikasiga o'rgatishning eng samarali vositalarini xatolik tahlili va unga ko'ra bartaraf etish tavsiyalarini ishlab chiqish lozim. Shu bilan birga biz tomonimizdan akademik eshish eshish vaqtida kuzatiladigan texnik xatolar aniqlandi hamda ular tahlil etilib tuzatish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

Akademik eshkak eshish texnikasida uchraydigan xatoliklar, ularning sabablari va bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar 1-jadvalda bayon etilgan.

Asosiy diqqat eshkak eshish jarayonidagi har bir texnik xatolikni aniqlash, bu xatoliklarning sport natijalariga ta'sirini tahlil qilish hamda ularni tuzatish yo'llarini belgilashga qaratilgan. Xususan, bu xatolar quyidagilarni o'z ichiga oladi: tananing noto'g'ri aylanishi yoki harakat koordinatsiyasining yo'qligi, suvga noto'g'ri kirish burchagi yoki chuqurligi, harakatning uzluksizligini buzadigan omillar, masalan, pastki yoki yuqori oyoq-qo'llardan noto'g'ri foydalanish, tananing haddan tashqari yoki yetarli darajada harakatlanmasligi va eshkak eshish paytida yuqori oyoq-qo'llar, tana va pastki oyoq-qo'llar o'rtasida koordinatsiyaning yo'qligi. Bunday kamchiliklarga yo'l qo'yish qayiq harakatining tezligini, muvozanatini va samaradorligini sezilarli darajada pasaytirishi mumkin. Bundan tashqari, texnik xatolar sport natijalariga ta'sir qilganligi sababli, ortiqcha zo'riqish, charchoq yoki jarohat olish ehtimoli ortadi; harakat uzluksizligining buzilishi qayiq tezligini pasaytiradi; harakatlarni bajarish usulini noto'g'ri tanlash kuch va energiya sarfini buzishga olib keladi; muvozanatning yomonligi qayiqning barqarorligini buzadi va bu sport natijalarining pasayishiga olib keladi.

1-jadval

Akademik eshkak eshishda texnik xatoliklar va ularni uz vaqtida to'g'rilash metodikasi

T/r	Xatolik	Xatolik tahlili	Tuzatish bo'yicha tavsiyalar
1	“Tayyorgarlik” fazasida tananing erta burilishi	Sportchi korpusni 10° ga oldinroq buradi	Eshkak eshish fazasida pauzani nazorat qiluvchi videotrenirovkalar
2	Startda kalta eshish amplituda	Startda eshkak eshish uzunligi 1,7 m ga qisqardi.	Eshkakni bir tekisda botirish va pozitsiyani mustahkamlash mashqlari
3	Oxirgi 200 m da eshish kuchining pasayishi	Eshish kuchining 350 Vt gacha kamaytirish	Quvvatni oshirish bilan 8×200 m oraliqlarni mashqlar otkazish va oxirgi (200) 100m masofada quvvatni yanada oshirish
4	Eshkak eshish siklida harakatlar uzluksizligining buzilishi	Qayiqning tezligini pasaytiradi; eshkak eshish yengilligi yo'qoladi.	Concept2 ergometrida yengil yuklamada sekinlashtirilgan eshkak eshish.
5	Eshkak dastasini qattiq ushlab turish eshkakni boshqarishni qiyinlashtiradi	Bilak mushaklarining ortiqcha zo'riqishiga olib keladi.	Suvni ilishga ochiq kaftlar bilan eshkak dastasini harakatlantirish
6	Eshishdagi kuchlarning noto'g'ri taqsimlanishi	qayiqning bir maromda yurishini buzadi.	Har bir eshish fazasiga olohida mashqlarni ergometrda bajarish.
7	Eshkakchi tanasining bo'g'inlari ishidagi nomuvofiqlik	- qo'llar, gavda va oyoqlar - dastakka kuch berishni bo'shashtiradi, eshish siklida harakat koordinatsiyasini buzadi.	Katta ekipajlarda yarim jamoa balansda qolgan yarim jamoa harakatda, Eshkak eshish siklidagi har bir fazasida pauza bilan ishlash va concept2 ergometrda sportchi bilan individual ishlash
8	Ratsional ish va dam olish ritmining yo'qligi	Dam olish vaqtini qisqartiradi (yoki uzaytiradi), bu esa erta charchashga va sport natijalarining yomonlashishiga olib keladi	Suvni ilish vaqtida nafas chiqarib tortish fazasida nafas olish va suvdan eshkakni chiqarish vaqtida nafasni chiqarish mashqlarini suvda va quruqlikda bajarish.
9	Juda uzun yoki kalta eshkak eshish	Eshkakning sekin tortilishiga yoki eshkakning suvdan juda tez chiqishiga olib keladi, bu esa eshish zaiflashishiga olib keladi.	Qayiq va eshkaklarning sozlanmalarini(nastroykasini)sportchiga moslab sozlash va eshkak eshish texnikasi takominlashtirsh (podnijka joylashuvi osga nisbatan uzoq yaqinligini, banka past blandligi, polozok podnojkaga yaqin uzoqligi, eshkaklarning parametrlarini sportchi boyiga moslab sozlash


Eshkak eshishdagi texnik xatolarni bartaraf etish uchun ularning har birini tuzatishning tegishli usullari, shuningdek, Concept 2 ergometrini o‘z ichiga olgan eng samarali zamonaviy usullardan foydalanish tavsiya etiladi (1-jadvalga qarang).

Fiziologik va kuch mashqlarini tanlashda pastki va yuqori oyoq-qo‘l mushaklarini rivojlantirish mashqlarini o‘z ichiga olgan maxsus mushaklarni kuchaytirish mashqlari tanlandi. Qayiqni texnik jihatdan sozlashda eshkak va boshqa jihozlarni sportchining xususiyatlariga moslashtirish, jumladan, eshkakning uzunligi, burchagi va balandligini optimallashtirish katta ahamiyatga ega. Bundan tashqari, muvozanat va muvofiqlashtirish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun mashg‘ulotlar davomida suvda va quruqlikda muvozanatni saqlashga qaratilgan texnik va muvofiqlashtirish mashqlari qo‘llanildi. Bizning tadqiqotimiz shuni ko‘rsatdiki, samarali nafas olish va nafas chiqarish oralig‘i hamda nafas olish va nafas chiqarish texnikasini to‘g‘ri tashkil etish charchoqni kamaytiradi..

Umuman olganda, jadvalda eshkak eshish texnikasi, harakatlar muvofiqligi va sport natijalarini oshirish uchun batafsil tahlil va tavsiyalar taqdim etilgan. Har bir xatolikning alohida o‘rganilishi va tuzatish choralari orqali sportchilarning salohiyati va natijalari sezilarli darajada yaxshilanishiga erishildi.

Dissertatsiyaning **“Akademik eshkak eshishda qayiqni to‘g‘ri sozlash orqali eshish texnikasini takomillashtirish metodikasi”** deb nomlangan uchinchi bobida eshkak eshish texnikasini to‘g‘ri shakllantirishda qayiqni sozlash, suvni ilshda to‘g‘ri burchakni ta‘minlash uchun yo‘laklarni sozlash metodikasi, akademik eshkak eshishda oyoq tirgagi balandligining eshish texnikasiga tasiri, eshkak eshishda mikrofazalar orqali texnik xatolarini biomexanika laboratoriyasida aniqlash asoslari bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Qayiqni to‘g‘ri sozlash har qanday ekipaj uchun juda muhim va aniq eshkak eshish texnikasini rivojlantirishga hissa qo‘shadi, noto‘g‘ri sozlash esa yomon texnikani egallashga olib kelishi mumkin. Qayiqni sozlashda, har bir sportchi uchun maksimal mexanik samaradorlikni ta‘minlash uchun eshkaklarning harakatlanuvchi qismlari va eshkak eshish uskunalari sozlanishi kerak. Toq eshkakli eshkak eshish qayig‘ini barqarorlik sozlash natijasida eshkak eshish traektoriyasini o‘zgarishi (1-rasmga qarang).



1-rasm. Toq eshkakli qayig‘ining barqarorligini eshish traektoriyasiga tasiri

Toq eshkakli qayiqda eshkak tutqichini sozlash eshkakchilarni rivojlantirish uchun juda muhimdir. Qayiqni barqarorligini to'g'ri sozlash yurish traektoriyasi va amplitudasini oshirish va kamaytirishning asosiy mexanizmi hisoblanadi. Shu sababli, qayiq barqarorligini va boshqa komponentlarini individual sozlash uchun optimal parametrlar ishlab chiqilgan.

Qayiqni sozlash eshkakchining bo'yi, vazni, kuchi va texnik imkoniyatlariga bog'liqligiga qarab, sportchining individual holati asosida moslashtirildi. Sozlash (2-jadvalga qarang) erkaklar va ayollar, og'ir va yengil vaznli o'g'il bolalar va qizlar, shuningdek, har bir qayiq turi uchun optimal qiymatlarni o'z ichiga oladi. Jadvaldagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, yosh akademik eshkak eshuvchilar uchun qayiqni sozlash parametrlarida eshkak uzunligi +8, 4-, 2- ekipajlari bo'yicha maksimal o'lchami 376-378 sm bo'lgan bo'lsa, biz tarafdin taklif qilinayotgan eshkak uzunligi bo'lsa 377 sm ekanligini ko'rishimiz mumkin. Yosh akademik eshkak eshuvchilar uchun qayiqni sozlash parametrlarida eshkak uzunligi 4X, 2X ekipajlari bo'yicha maksimal o'lchami 289-291 sm bo'lgan bo'lsa, biz tarafdin taklif qilinayotgan eshkak uzunligi bo'lsa 290 sm ekanligini ko'rishimiz mumkin. Yosh akademik eshkak eshuvchilar uchun qayiqni sozlash parametrida eshkak uzunligi 1X ekipaji bo'yicha maksimal o'lchami 289-292 sm bo'lgan bo'lsa, biz tarafdin taklif qilinayotgan eshkak uzunligi bo'lsa 290 sm ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Yosh akademik eshkak eshuvchilar uchun qayiqni sozlash parametrlari ichki richag uzunligi +8 ekipaji bo'yicha maksimal o'lchami 112,5-114,5 sm bo'lgan bo'lsa, biz tarafdin taklif qilinayotgan ichki richag uzunligi 113,5 sm ekanligini ko'rishimiz mumkin. Yosh akademik eshkak eshuvchilar uchun qayiqni sozlash parametrlari ichki richag uzunligi 4- ekipaji bo'yicha maksimal o'lchami 113,5-115,5 sm bo'lgan bo'lsa, biz tarafdin taklif qilinayotgan ichki richag uzunligi bo'lsa 114,5 sm ekanligini ko'rishimiz mumkin.

2-jadval

Yosh akademik eshkak eshuvchilar uchun akademik eshkak eshish qayigini sozlash parametrlari

Qayiq turlari		+8	4-	2-	4X	2X	1X
Eshkak uzunligi	Maksimal o'lcham	376-378	376-378	376-378	289-291	289-291	289-292
	Taklif	377	377	377	290	290	290
Ichki richag	Maksimal o'lcham	112.5-114.5	113.5-115.5	114.5-116.5	87-89	87-89	88-90
	Taklif	113.5	114.5	115.5	88	88	89
Vinos	Maksimal o'lcham	82.5-84.5	83.5-85.5	84.5-86.5	157-159	158-160	159-162
	Taklif	83.5	84.5	85.5	158	159	160
Qoplama	Maksimal o'lcham	3°-5°	3°-5°	3°-5°	3°-5°	3°-5°	3°-5°
	Taklif	4°	4°	4°	4°	4°	4°
Eshish balandligi			17-20	-	18-21	18-21	18-21
Qayiq oqigacha bolgan oraliq			62-66	-	62-66	62-66	62-66

Yosh akademik eshkak eshuvchilar uchun qayiqni sozlash parametrlari ichki richag uzunligi 2- ekipaji bo'yicha maksimal o'lchami 114,5-116,5 sm bo'lgan bo'lsa, biz tarafdandaklif qilinayotgan ichki richag uzunligi bo'lsa 115,5 sm ekanligini ko'rishimiz mumkin. Yosh akademik eshkak eshuvchilar uchun qayiqni sozlash parametrlari ichki richag uzunligi 4X, 2X ekipajlari bo'yicha maksimal o'lchami 87-89 sm bo'lgan bo'lsa, biz tarafdandaklif qilinayotgan eshkak uzunligi bo'lsa 88 sm ekanligini ko'rishimiz mumkin. Yosh akademik eshkak eshuvchilar uchun qayiqni sozlash parametrlari ichki richag uzunligi 1X ekipaji bo'yicha maksimal o'lchami 88-90 sm bo'lgan bo'lsa, biz tarafdandaklif qilinayotgan ichki richag uzunligi bo'lsa 89 sm ekanligini ko'rishimiz mumkin. Yosh akademik eshkak eshuvchilar uchun qayiqni sozlash parametrlari vinos uzunligi + 8 ekipaji bo'yicha maksimal o'lchami 82,5-84,5 sm bo'lgan bo'lsa, biz tarafdandaklif qilinayotgan vinos uzunligi bo'lsa 83,5 sm ekanligini ko'rishimiz mumkin. Yosh akademik eshkak eshuvchilar uchun qayiqni sozlash parametrlari vinos uzunligi 4- ekipaji bo'yicha maksimal o'lchami 83,5-85,5 sm bo'lgan bo'lsa, biz tarafdandaklif qilinayotgan vinos uzunligi bo'lsa 84,5 sm ekanligini ko'rishimiz mumkin. Yosh akademik eshkak eshuvchilar uchun qayiqni sozlash parametrlari vinos uzunligi 2- ekipaji bo'yicha maksimal o'lchami 84,5-86,5 sm bo'lgan bo'lsa, biz tarafdandaklif qilinayotgan vinos uzunligi bo'lsa 85,5 sm ekanligini ko'rishimiz mumkin. Yosh akademik eshkak eshuvchilar uchun qayiqni sozlash parametrlari stabilligi uzunligi 4X ekipaji bo'yicha maksimal o'lchami 157-159 sm bo'lgan bo'lsa, biz tarafdandaklif qilinayotgan vinos uzunligi bo'lsa 158 sm ekanligini ko'rishimiz mumkin. Yosh akademik eshkak eshuvchilar uchun qayiqni sozlash parametrlari vinos uzunligi 2X ekipaji bo'yicha maksimal o'lchami 158-160 sm bo'lgan bo'lsa, biz tarafdandaklif qilinayotgan vinos uzunligi bo'lsa 159 sm ekanligini ko'rishimiz mumkin. Yosh akademik eshkak eshuvchilar uchun qayiqni sozlash parametrlari vinos uzunligi 1X ekipaji bo'yicha maksimal o'lchami 159-162 sm bo'lgan bo'lsa, biz tarafdandaklif qilinayotgan vinos uzunligi bo'lsa 160 sm ekanligini ko'rishimiz mumkin. Yosh akademik eshkak eshuvchilar uchun qayiqni sozlash parametrlari qoplama + 8, 4-, 2-, 4X, 2X va 1X ekipajlari bo'yicha maksimal o'lchami 3°-5° bo'lgan bo'lsa, biz tarafdandaklif qilinayotgan qoplama bo'lsa 4° ekanligini ko'rishimiz mumkin. Yosh akademik eshkak eshuvchilar uchun qayiqni sozlash parametrlari 4-, 4X, 2X, va 1X ekipajlari bo'yicha biz tarafdandaklif qilinayotgan eshish balandligi 18-21 sm ekanligini ko'rishimiz mumkin. Yosh akademik eshkak eshuvchilar uchun qayiqni sozlash parametrlari 4-, 4X, 2X va 1X ekipajlari bo'yicha biz tarafdandaklif qilinayotgan qayiq oqigacha bolgan oraliq 62-66 sm ekanligini ko'rishimiz mumkin. Akademik eshkak eshish parametrlarini moslashtirish orqali qisqa vaqt ichida masofani bosib o'tishda eshish sonini kamayishiga, eshish amplituadasini uzayishiga, qayiq tezligining oshishiga, o'rtacha eshish kuchining yaxshilanishiga erishiladi.

Ikki guruh sportchilarining eshkak eshish bo'yicha asosiy ko'rsatkichlari barcha masofalarda chalish past holatda bo'lganda eng yaxshi bo'ldi. Eshish uzunligi va

oyoq harakatlari mos ravishda 1,7% va 3,0% ga, eshkak dastasiga o‘rtacha kuch va bir eshishda ish samaradorligi esa 0,6% va 2,4% ga yuqori bo‘ldi (3-jadvalga qarang).

3-jadval

Baland va past oyoq tirgagichli eshkakchilarining barcha masofalardagi o‘rtacha ko‘rsatkichlar nisbati

